CHINGIZXON VA ALOVUDDIN MUHAMMAD II O`RTASIDA DIPLOMATIK MOJARO.

Shermamatova Sug̀dıyona Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Namangan filiali “Tarix” yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatasiya. Ushbu ishda Chingizxon va Alovuddin Muhammad o‘rtasidagi diplomatik mojaro tahlil qilinadi. Tadqiqotda mojaroning kelib chiqish sabablari, ayniqsa savdo aloqalari doirasida yuzaga kelgan O‘tror voqeasi va uning siyosiy oqibatlari yoritiladi. Chingizxon tomonidan yuborilgan elchilarning o‘ldirilishi xalqaro diplomatik me’yorlarning buzilishi sifatida baholanadi va bu holat ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib kelgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ishda mojaroning Mo‘g‘ullar istilosi bilan yakun topgani, buning natijasida Xorazmshohlar davlati inqirozga yuz tutgani ilmiy asosda tahlil qilinadi. Annotatsiyada diplomatik xatolar, siyosiy qarorlarning oqibatlari hamda o‘sha davr xalqaro munosabatlar tizimiga ta’siri umumlashtirilgan.

Kalit So`zlar. Chingizxon Alovuddin, Muhammad O‘tror voqeasi, Mo‘g‘ullar istilosi, Xorazmshohlar davlati, Mo‘g‘ullar davlati diplomatik munosabatlar, savdo karvonlari, elchilar daxlsizligi, xalqaro siyosat, harbiy yurishlar, davlatlararo mojaro, tarixiy ziddiyatlar, Markaziy Osiyo tarixi.

Annotation. This work analyzes the diplomatic conflict between Genghis Khan and Alowuddin Muhammad. The study highlights the reasons for the origin of the conflict, especially the O'tror incident that occurred within the framework of trade relations and its political consequences. The killing of ambassadors sent by Genghis Khan is assessed as a violation of international diplomatic standards and is shown to have led to a strained relationship between the two states. The work also analyzes on a scientific basis that the conflict ended with the Mongol invasion, as a result of which the Khwarezmshah state was in crisis. The annotation summarizes diplomatic errors,

the consequences of political decisions and their impact on the international relations system of the time.

Keywords. Genghis Khan Alovuddin, Muhammad O'tror incident, Mongol invasion, Khwarezmshah state, Mongol State Diplomatic Relations, trade caravans, ambassador immunity, international politics, military campaigns, interstate conflict, historical conflicts, history of Central Asia.

Аннотация. В данной работе анализируется дипломатический конфликт между Чингисханом и Аловуддином Мухаммадом. В исследовании освещаются причины возникновения конфликта, особенно инцидент с О'Трором, произошедший в рамках торговых отношений, и его политические последствия. Убийство послов, отправленных Чингисханом, оценивается как нарушение международных дипломатических стандартов и, как показано, привело к обострению отношений между двумя государствами. В работе также на научной основе анализируется, что конфликт завершился монгольским нашествием, в результате которого государство хорезмшахов оказалось в кризисе. В аннотации кратко излагаются дипломатические ошибки, последствия политических решений и их влияние на систему международных отношений того времени.

Ключевые слова. Чингисхан Аловуддин, инцидент с Мухаммедом О'Трором, монгольское нашествие, государство хорезмшахов, дипломатические отношения монгольского государства, торговые караваны, неприкосновенность послов, международная политика, военные кампании, межгосударственные конфликты, исторические коллизии, история Центральной Азии.

Kirish. Tarixiy manbalarga qaraganda, Chingizxon Xitoyni bosib olishidan avval Xorazmshoh Aloviddinning ham shunday niyati bo‘lgan. Sulton Xorazmshohning kotibi (dobiri) bo‘lgan Imod Al-Mulk Tojiddin Jomiyning “Tarixi Jurjoniya” asarida aytishicha, 1214 yoki 1215 yilda Aloviddin Muhammad savdogarlardan Xitoyning g‘aroyib boyliklari haqida eshitib, uni bosib olishni

rejalashtirgan. Chingizxon Xitoyni bosib olganini eshitgan Xorazmshoh bu xabar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilib kelish uchun Chingizxonning huzuriga o‘zining mashhur elchisi Sayid Bahovuddin Roziyni yuboradi. Ana shu davrdan e’tiboran mo‘g‘ul xoqoni va Xorazmshoh sultoni o‘rtasida ilk diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yiladi. Har ikki davlat o‘rtasida elchilik munosabatlari o‘rnatiladi. Ammo, har ikki taraf ham elchilardan ayg‘oqchilik maqsadida foydalangan. 1216 yilda Chingizxon Xorazmshoh Muhammad elchi qilib yuborgan Bahoviddin Roziyni izzat-ikrom, hurmat va tavoze bilan kutib oladi. Elchilar Xorazmga qaytayotganda, mo‘g‘ul xoqoni sulton Aloviddin uchun juda noyob sovg‘a-salomlar berib, elchiga “men – Mashriq hukmdori, sen –Mag‘ribning hukmdori. Kel, oramizda do‘stlik va tinchlik haqida qat’iy ahdnoma bo‘lsin! Ikkala davlatning savdogarlari bordi-keldi qilishsin. Mening yerlarimdagi noyob va oddiy mol-buyumlar sen tomonga, sening mollaring men tomonga kelib tursin”, deb yozilgan maktubni berib yuboradi.

O‘z navbatida Chingizxon ham javob tarzida o‘z savdo karvonlarini elchilar bilan Xorazmshoh davlatiga yuborgan. Bu savdo karvoniga elchi Mahmud Yalovich Al-Xorazmiy, Aliakbar Xo‘ja Al-Buxoriy va Yusuf Kenka Al-O‘troriylar boshchilik qilgan.

Mahmud Yalovich asli xorazmlik bo‘lgan. Ammo, u o‘z ona Vataniga xiyonat qilib, mo‘g‘ullarga sotilib ketgan edi. Tarixchi Shahobiddin An-Nasaviyning bergan ma’lumotlarga qaraganda, Chingizxon Xorazmshoh Muhammad uchun turkiy odatga ko‘ra, tuya o‘rkachi barobar keladigan quyma oltin yuborgan. Bundan tashqari savdo karvonida qimmatbaho toshlar, nusub al-xutuvv (morj tishlar), qop-qop mushk (xushbo‘y moddalar), yoqut va tarqu deb ataladigan oq tuya yungidan to‘qilgan kiyimlar bo‘lgan. Sulton Aloviddin Chingizxon yuborgan elchilarni 1218 yilning bahorida qabul qiladi. Shunda elchilar Xorazmshohga mo‘g‘ul xoqonining maktubini topshiradilar. Bu xatni Bosh vazir Nizom Ul-Mulk elchilarni qabul qilish marosimida o‘qib eshittiradi. Chingizxon yo‘llagan nomasida shunday deyilgan edi.

“Senga o‘z salomimni yo‘llayman. Men sening mamlakatingni kengligini va qudratini yaxshi bilaman. Sen ko‘plab xalqlar ustidan hukmronlik qilasan, shuning uchun sen bilan tinchlikda yashashni istardim. Men seni o‘zimning eng suyukli o‘g‘lim, deb hisoblaguchiman. Mening Xitoyni zabt etganim va undan shimolda yashovchi hamma xalqlarni bo‘ysundirganim senga ma’lum. Shuni bilginki, mening saltanatim chumoli uyasidek jangchilar uyasi hamda kumush kondir va menda birovning mulkiga egalik qilish ehtiyoji yo‘q. O‘ylaymanki, fuqarolarimizning savdo munosabatlarini rivojlantirishdan ikkimiz ham manfaatdor bo‘lamiz”.

Chingizxon sulton Muhammad bilan ilk munosabatlarni o‘rnatishdanoq diplomatik mahoratini ishga solib, uni “o‘g‘lim” deb ustunlikga erishmoqchi bo‘lgan. Albatta “o‘g‘lim” degan so‘z o‘zini “Aleksandr Soniy” (Ikkinchi Aleksandr) “Sulton Sanjar Monand” (Yaratganning yerdagi soyasi) deb atovchi Xorazmshohga yoqmaydi. Sulton Aloviddin bo‘lsa bunga qanday javob qaytarishni bilmay qoladi. Shunda Xorazmshoh Muhammad qulay fursat poylab, yurt xoini Mahmud Yalovichni o‘z huzuriga chaqiradi.

Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida shunday yoziladi. “Sening xoning Xitoy yurtini olgani rostmu, deb bir qimmatbaho durni sulton Aloviddin bozusindin chiqarib, Mahmud Yalovichga berdi”. Bu bilan Xorazmshoh Muhammad, Mahmud Yalovichni xorazmlik bo‘lgani uchun uni Chingizxon huzuridagi o‘zining ayg‘oqchisiga aylantirmoqchi edi. U Yalovichdan Chingizxon lashkari va davlati haqida bor ma’lumotlarni aytishini talab qiladi. Shunda xoin Yalovich ayyorlik ishlatib, shunday deydi. ‘Tavba qildim, ulug‘ sulton! Meni avf et! Olampanoh, sening oftob yang‘lig‘ qudratli lashkaring oldida Chingizxonning qo‘shini bir xira shamdur. Oftob-olamtob chiqqach, yuz ming sham nuri ham bir pul bo‘ladi. Sham tunda lozim, oftob hamma vaqt... Ulug‘ sulton! Men beimon emasman! Aslim ulug‘ va muqaddas xorazmlik. Sening qudrating oldida bosh egurman. Mol-mulkim Chingizxon tasarrufida bo‘lgani uchun uning xizmatidaman. Dilimda ona tuproq manfaati

hukmron. Yana bir karra ona tuproq manfaati haqqi, qasam ichib aytadurmenki, meni g‘azabingga duchor etma, men faqat Yalovichmen... Elchiga o‘lim yo‘q”, deb Xorazmshohga bosh egadi. Bundan o‘zicha xursand bo‘lgan sulton Aloviddin Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozilik berib, elchilarga qimmatbaho to‘n kiygizib, ortiga jo‘natib yuboradi. Mahmud Yalovich Chingizxon huzuriga borganida Xorazmshoh bilan bo‘lgan voqeani aytib beradi. Mo‘g‘ul xoqoni esa bundan juda xursand bo‘ladi va Yalovichga Xorazmshoh Muhammad bergan qimmatbaho sovg‘alardan ham ko‘proq boylik berib, unga minnatdorlik bildiradi. Chingizxon sulton Aloviddin ustidan diplomatik g‘alabaga erishgan edi. O‘z rejalari amalga oshganini bilgan Chingizxon fursatni boy bermasdan, o‘z minnatdorligini izhor etish va ikki buyuk davlat o‘rtasida tuziladigan shartnomani tezlashtirish maqsadida zudlik bilan Xorazmga juda katta savdo karvonini jo‘natadi. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” kitobida yozilishicha, bu karvonda to‘rt yuz nafar musulmon savdogarlar bo‘lgan. Elchilar orqali Chingizxon sulton Aloviddinga maktub ham yuboradi. Ushbu xat “To‘rt ulus tarixi” kitobida keltiriladi: “Ul tarafdan bozorgonlar bu diyorga kelishdi. Ularga qay tarzda e’zoz-ikrom ko‘rsatilganini o‘zlari aytishlari mumkin. Ular nimani mushohada qilgan bo‘lsalar, barchasini bayon qilsalar kerak. Bu tomondan ham bir musulmon jamoasi turli mol-u gazlama, mushk-u chiniy, zar-u nuqra, javohirlar bilan ul diyor sari yo‘naldilar. Bu ahd-u paymonada osmon-u zamin egasi ro‘yi zamin mamlakatlarini bizga va senga tortiq qilgan. Xudo bandalari borib kelishib, obodonchilik bilan mashg‘ul bo‘lmoqlari lozim. Biz-u sening, ular davri sultonlarining saxovatidan xursand va bahravor bo‘lurlarki, zamon mardumi bizu sening duoyi jonimizni qilib yashaydilar”. Ammo, yo‘lga chiqqan savdo karvoni Urganchga yetib bora olmaydi. Uni O‘tror shahar hokimi Inalxon buyrug‘i bilan ushlab qoladilar. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Inalxon oltmish yoshga borgan, cho‘qqi soqol, baland bo‘yli, ortiq va chayir odam bo‘lgan. U Turkon Xotunga qarindosh bo‘lganidan G‘oyirxon laqabini olgan. Savdo karvonidagi jamoa a’zolaridan biri hind

bo‘lib, ilgari juda mashhur bo‘lgan ekan. U Inalxonning oldindan tanishi bo‘lgan. Shu bois ilgaridagi odat bo‘yicha hindi lohchada shahar hokimiga Inolchuq deb murojaat qilgan. Bu so‘z shahar hokimi Inalxonga qattiq botgan. Shu boisdan Inalxon elchilar va barcha karvon a’zolarini qirg‘in qilishga buyruq beradi. Mirzo Ulug‘bek bu ishlarni “dev ko‘rsa ham lol qolar edi”, deb ta’riflagan. Faqat birgina tuyakash tasodifan tirik qolib, bo‘lgan voqeani Chingizxonga so‘zlab beradi. O‘trorda sodir bo‘lgan voqea haqida tarixchilar o‘rtasida turli qarashlar mavjud. Bir guruh tarixchilar qirg‘in Turkon Xotun tomonidan uyushtirilgan deyishadi. O‘tror hokimi Inalxon karvondagilarni josuslikda ayblab ularni hibsga oladi. Karvonda mo‘g‘ul savdogarlari ham bo‘lib, ularning ayrimlari, hatto, Chingizxonga yaqin qarindosh bo‘lgan. Inalxon karvondagi barchani qatl etish va mol-mulklarini musodara qilish uchun sulton Aloviddindan izn so‘rab, chopar yo‘llaydi. Xorazmshoh Muhammad bunga rozilik beradi. Shu tariqa o‘rtadagi ahdga vafo qilinmay 500 ga yaqin kishi tig‘dan o‘tkaziladi. Faqat birgina tuyakash bundan omon qolib, bo‘lgan voqeani Chingizxonga aytib beradi. Karvondagi mo‘g‘ul savdogarlari josus bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Lekin bunday xol Xorazm tomonidan mo‘g‘ul yurtiga yuborilgan savdo karvonida ham bo‘lgani tabiiy. Har ikki tomon ham bir-birlarining harbiy tayyorgarliklari haqida ma’lumot to‘plashga harakat qilishgan. O‘trordagi qirg‘inni eshitgan Chingizxon, tarixiy kitoblarda yozilishicha, qattiq g‘azabdan yig‘lab yuborgan. Tarixchi Nasaviyning ma’lumot berishicha, Chingizxon bu voqealardan ta’sirlanib, uch kun o‘z xonasiga qamalib, shunday nola qilgan ekan. “Ey Xudo, o‘zing guvoh san, men Aloviddinga tinch qo‘shnichilik, osoyishtalikni taklif etayotirman. U har gal taklifimga katta jinoyat – odam o‘ldirish bilan javob qilmoqda. Xorazmshohning ulkan davlati, lashkari va tarix oldida mening gunohim yo‘q. Urushni u boshladi. Men o‘zimni, qon va jon berib yaratgan davlatimni, xalqlarimni himoya qilishga majburman”. Chingizxon yuborgan elchining o‘ldirilishi Mo‘g‘ul xoqoni Xorazmshoh Muhammad huzuriga Ibn Karfaj Bug‘roni (uning otasi sulton Takashning amirlaridan biri bo‘lgan) va ikki tatarni elchi qilib yuboradi.

Shahobiddin An-Nasaviyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Chingizxon sulton Aloviddinga quyidagi mazmunda maktub yo'llagan:

"Sen savdogarlarning bexavf-xatar bo'lmog'ini, ularga hech kim hujum qilmasligini yozib, o'z qo'ling bilan imzolagan va'dani bergan eding. Lekin xiyonatkorona yo'l tutding va so'zingni buzding. Bu ishni Islom sultoni tomonidan qilingani yana ham yomondir. Inalxon qilgan ish sening amring bilan bo'lmaganini tasdiqlasang, u holda Inalxonni tutib ber, toki biz uni jazolaylik. Aks holda, eng aziz qalblarni larzon qiladigan va nayzalarning sopi sinadigan urush bo'ladi".

Bu maktubdan g'azablangan Xorazmshoh elchi Karfaj Bug'roni qatl etishga buyruq beradi. Uning ikki hamrohini esa soqoli va sochini qirdirib ortga jo'natib yuboradi. Bu voqeadan so'ng, Chingizxon bilan Xorazmshoh Muhammad o'rtasida to'qnashuv bo'lishi aniq edi. Xullas, sulton Aloviddin o'zining uzoqni ko'ra bilmasligi va kaltabin siyosati tufayli ikki o'rtada boshlangan urushning aybdori sifatida tarixga kiradi. Chingizxoning Qoraxitoy tomon yurish qilishi Mo'g'ul xoqoni Xorazmshoh Muhammadga qarshi urush qilishga tayyorgarlik ko'radi. U eng avvalo, eski dushmani Kuchluqxon hokimlik qilayotgan Qoraxitoyni bosib olishga qaror qiladi. Bu yurish Chingizxonning fikricha, kelajakda bo'ladigan urushda mo'g'ul lashkarining so'l qanoti xavfsizligini ta'minlar edi. Buning uchun Chingizxon Jo'ji boshchiligida 20 ming kishilik qo'shin jo'natadi. Kuchluqxon musulmonlarni zo'rlab, Islom dinidan qaytarishga uringan. Qur'on va shariatga amal qilganlarni ayovsiz jazolagan. Azon aytib, namozga chaqirishlarni taqiqlagan. Musulmon din peshvolarini zindonlarga tashlab, madrasa devorlariga osgan. Mana shu joyda Xorazmshoh Muhammadning munosabati odamni hayron qoldiradi. Shundoqqina yonginasida musulmonlar aziyat chekayotgan bir vaqtda sulton Aloviddin xalifa An-Nosirga qarshi yurish bilan band edi. Mo'g'ul qo'shini Qoraxitoy hududini egallayotganidan xabar topgan sulton Aloviddin darhol Samarqanddan katta qo'shin bilan yo'lga tushadi. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kitobida yozilishicha, mo'g'ul lashkariga Jo'chi

boshchilik qilgan. Jo‘chi o‘z lashkariga Xorazmshoh Muhammadga qarshi jang qilmasdan, ortga chekinishni buyuradi. U sulton Aloviddinga do‘stona munosabatda bo‘lib shunday deydi: “Ey shahriyor, yoshlik etib, mullaga ishonib komronlik qilmagin. Ey shahriyor, dilimizni g‘amga solma, o‘z joningga qasdimizni qo‘zg‘ama. Chingizxon bu diyorga bizni boshqa ish bilan jo‘natgan. Lashkarpanoh, u shohdan sen bilan urishmoq ijozatini olmaganmiz”, degan. Bu gaplardan Xorazmshoh Muhammad g‘azabga kelib, “Agar Chingizxon senga men bilan jang qilmaslikni buyurgan bo‘lsa, Xudo menga senga hujum qilishni buyuryapti va men butparastlarni qirib tashlab, uning mehrini qozonmoqchiman”, deb javob beradi. Jang qilishga majbur etilgan mo‘g‘ullar oz sonli bo‘lsalar-da, mardonavor jang qiladilar. Bu jangda sulton Aloviddin o‘zining 20 ming askaridan ayriladi. Ba’zi tarixiy manbalarda jang vaqtida Xorazmshoh Muhammad bir chetga chodir qurib, osh yeb o‘tirgani aytiladi. To‘qnashuvda sulton Aloviddinning o‘zi yaralanib, mo‘g‘ul lashkarining qurshovida qolib ketadi. Faqatgina sulton Jaloliddinning o‘z vaqtida yetib kelishi, sulton Aloviddinni muqarrar halokatdan saqlab qoladi. Mo‘g‘ullar bilan kechgan jang Xorazmshoh Muhammadda juda katta taassurot qoldiradi. U o‘z yaqinlariga “men bunday ajoyib qo‘shinni ko‘rgan emasman”, degan ekan. Chingizxonning o‘g‘li Jo‘chi ham jang maydonida Jaloliddin Manguberdining arslondek ot surishiga qoyil qolib, otasiga so‘zlab bergani haqida tarixiy ma’lumotlar uchraydi. Qoraxitoyni o‘z davlati tarkibiga qo‘shib olgan Chingizxon 1218 yilda harbiy qurultoy chaqiradi. Qurultoyda muhokama qilingan asosiy masala Xorazm davlatiga qilinadigan bo‘lajak yurishga tayyorgarlik ko‘rishdan iborat edi. Sulton Muhammadning bo‘lajak urushga tayyorgarlik ko‘rishi 1218 yil Xorazmshoh saroyida ulkan harbiy mashvarat chaqiriladi. Unda Chingizxonning hujumiga nisbatan ko‘rilajak chora masalasi muhokama qilinadi. Mamlakatning eng obro‘li va e’tiborli oqsoqollari o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Jumladan saroyning nufuzli arboblaridan biri Shahobiddin Al-Xivaqiy davlatning barcha lashkarini Sayhun (Sirdaryo) yaqiniga to‘plab, holdan

toygan mo‘g‘ul qo‘shiniga favqulodda hujum qilishni taklif etadi. Shahzoda Jaloliddin bo‘lsa umuman boshlanajak urushning oldini olishni maslahat berib, nizoning kelib chiqishiga asosiy sababchi bo‘lgan Inalxonni Chingizxonga topshirishni aytadi. Lekin, Xorazmshoh bunga rozi bo‘lmaydi. Shunda Jaloliddin boshqa bir taklifni o‘rtaga tashlaydi. Unga ko‘ra, Movarounnahr, Xuroson, Eron va Arab yurtlarining barcha lashkar kuchlarini Buxoro yaqinidagi bir yerga jamlab, dushman bilan sahroda ochiq jang qilish kerak edi. Ammo, Xorazmshoh Muhammad qo‘shin bir yerga jamlashdan qo‘rqadi. Shu sababli mudofaa taktikasini tanlagan. Ba’zi tarixchilar sulton Aloviddin Chingizxon mamlakatni bir muddat talon-toroj qilib, so‘ng ortiga qaytib ketadi, deb o‘ylagan. Shuning uchun Xorazmshoh Muhammad mudofaa taktikasini tanlagan, deya ta’kidlashadi. Sulton Aloviddin lashkari Chingizxonnikidan bir necha barobar ortiq bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek o‘zining “To‘rt ulus tarixi” kitobida yozishicha, Xorazmshoh qo‘shini 400 mingdan kam bo‘lmagan. Boshqa adabiyotlarda bo‘lsa, sultonning qo‘shini 450 ming ekani ta’kidlangan. Biroq Xorazmshoh o‘z sarkardalariga, ayniqsa, qipchoqlarga ishonchsizlik bilan qaragan. Chingizxon tuzgan reja 1219 yilning oxirida Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga qarshi urush harakatlarini boshlab yuboradi. Bu paytda mo‘g‘ul qo‘shinining umumiy soni to‘g‘risida adabiyotlarda turlicha ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Mixail Ivanin mo‘g‘ul jangchilari 250 mingdan oshmas edi desa, boshqa manbalarda Chingizxonning lashkari 200 ming kishi bo‘lganligi ta’kidlangan. Chingizxon Irtish qirg‘oqlaridan to Sayhun (Sirdaryo) sohillarigacha bo‘lgan harakati davomida hech qanday qarshilikka duch kelmaydi. Hujumning dastlabki zarbasi O‘tror qal’asiga qaratilgan edi. Mo‘g‘ul xoqoni Xorazm davlatini tezroq zabt etish maqsadida o‘z lashkarini to‘rt qisimga bo‘lib, to‘rt yo‘nalish bo‘yicha yalpi hujumga o‘tadi. Chingizxon o‘g‘illari Chig‘atoy va O‘qtoyga 100 minglik qo‘shin qoldirib O‘tror shahrini qamal qilishni buyuradi. Kenja o‘g‘li Jo‘chini ikkinchi lashkarga bosh qilib, unga Sirdaryo etaklaridagi Sing‘oq, O‘zgan, Jand, Yangikent va boshqa shaharlarni bosib olishni topshiradi. Uchinchi qismga

Oloqno‘yon va Suketu Chebri ismli sarkardalarni qo‘mondon etib tayinlaydi. Ularning vazifasi Sirdaryoning yuqori qismida joylashgan Binokat va Xo‘jand shaharlarini egallashdan iborat edi. Chingizxonning o‘zi esa kichik o‘g‘li Tuluxon bilan birgalikda yordamga kelayotgan dushman lashkarining yo‘lini to‘sish maqsadida Buxoroga yurish qiladi. O‘tror qamali Sulton Aloviddin O‘tror mudofaasi uchun katta kuch ajratadi. Qamal arafasida Qoracha Hojib qo‘mondonligida 10 ming qo‘shin O‘trorga yuboriladi. Juvayniyning ma’lumotlariga ko‘ra, bundan tashqari, Xorazmshoh Muhammad “Lashkari Birun” deb atalgan 50 ming kishilik lashkar jo‘natgan. O‘tror shahrining o‘zida taxminlarga ko‘ra 100 minglik qo‘shin bo‘lgan.

Mo‘g‘ul qo‘shini O‘tror shahrini olti oy qamal qiladi. Ammo yuqori mansab va lavozimlarni egallab turgan Bahriddin Amid, Safiy Akra Hojib va yordamga yuborilgan Qoracha Hojib o‘z qo‘shini bilan sotqinlik qilib, dushman tarafiga o‘tib ketadilar. Buning oqibatida, olti oylik qamaldan so‘ng mo‘g‘ullar shaharni egallab oladilar. Chingizxon o‘z yurtiga sotqinlik qilgan Bahriddin Amid, Safiy Akra Hojib va Qoracha Hojiblarga qarab “Sizlar nima yeysizlar”, deb so‘raydi. “Bizlar yerdan o‘sib chiqqan giyoh-u mevalarni yeymiz”, deya javob berishadi. Mo‘g‘ul xoqoni biroz o‘ylanib, “Mol yerdan o‘sib chiqqan o‘tni yeydi, o‘t yeydigan molni biz yeymiz. Bular o‘t yesa, mol ekan! Bularni moldek so‘yib tashlay beringlar”, deb farmon beradi. O‘tror qamal vaqtida Inalxon alohida jasorat ko‘rsatadi. Shahar taslim bo‘lganida, shahar hokimi o‘z lashkari bilan arkka qamalib, bir oy davomida mo‘g‘ullarga qarshilik ko‘rsatgan. Chingizxon qo‘shiniga Inalxonni tiriklayin qo‘lga olishni buyuradi. Tirikligicha qo‘lga olingan shahar hokimi xoqonning huzuriga jo‘natiladi. Tarixchi An-Nasaviyning yozishicha, Chingizxon kumushni eritib, Inalxonning ko‘zi va qulog‘iga quydirgan ekan. Boshqa manbalarda esa shahar hokimining oyoq-qo‘li bog‘lanib, yerga yotqizilgan. So‘ngra mo‘g‘ul qo‘shini uning ustidan yurib o‘tgani ta’kidlangan. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” kitobida shunday yoziladi: “Mo‘g‘ullar O‘trorning butun aholisini sahroga haydab chiqdilar. O‘tror hisorini

qo‘lga kiritib, yer bilan barobar qildilar. Tirik qolganlardan, raiyat va hunarmandlarning ba’zilarini hibsga oldilar, ba’zilarini esa qul qilib haydadilar”.

Xulosa. Chingizxon va Alovuddin Muhammad o'zining xavfsizlik mojaro XIII asr tarixidagi muhim voqealardan biri hisoblanadi. barqaror savdo va xavfsizlik munosabatlari asosida yo'lga qo'yilgan aloqalar o'zaro ishonchsizlik, siyosiy ziddiyatlar va tibbiy yordam keskinlashgan. bunga, O'tror savdo voqeasi, ya karvoning qat'llanishiga va elchilarga nisbatan munosabatda bo'lish mojaning ochiq urushga sabab bo'ldi. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, Alovuddin Muhammad tomonidan qabul qilingan alohida qarorlar yetarlicha puxta o'ylab chiqilmagan. Davlat shaxsiy muammolari, boshqaruvdagi muammolar va yagona strategiyaning yo'qligini to'sib qo'yishga qarshi samarali choralar ko'rishga to'xtatilgan. yashash, bu holat Xorazmshohlar davlatining Chingizxon esa kelgan vaziyatdan uzoq vaqt, harbiy yurishlarni qisqa vaqt ichida masofadan turib masofani bosib o'tishga erishgan. Bu esa joyidagi vaziyatning tubdan o'ziga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

□ Tarixi jahongushoy
Muallif: Alauddin Atomalik Juvayniy
Ma
Havolhttps://archive.or
Siyrat as-Sulton Jaloliddin
MuaShahobiddin an-Nasaviy
Mazmuni: X
Havola: https:https://archive.org/detail
To‘rt ulus tarixi
MuallMirzo Ulug‘bek
Mazmuni: Turk-mo‘g‘ul xa
Havola:https://ziyouz.uz/

Genghis Khan and the Making of the Modern World

Muallif:Jack Weatherford

Mazmuni: Chingiz

Havolhttps://www.goodre

The Mongols

MualDavid Morgan

Mazmuni

Havola:https://www.wiley.com

The Mongol Empire

Muallif: John Man

Mazmuni: Mo‘g‘ullar imperiyasining tarixiy rivojlanishi yoritilgan.

Havola:https://www.penguinrandomhouse.com